

TATUning professor-o'qituvchilari Fan, ta'lim, madaniyat va biznesni rivojlantirishda raqamli muhitni shakllantirishga bag'ishlangan "**Issiq ko'l 2019: jamiyatni demokratlashtirish va kutubxonalar**" xalqaro konferensiyasida ishtirok etayotganini [ma'lum qilgan edik](#).

Konferensiya doirasida Qirg'iziston oliy ta'lim muassasalari ilmiy kutubxonalarida Muhamma-al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti professori **Raxmatullayev M.A.** boshchiligida yaratilgan integrallashtirilgan axborot-kutubxona tizimi **ARMAT++** asosida korporativ tarmog'i muvaffaqiyatli tashkil etilgani munosabati bilan TATU professori Raxmatullayev M.A. Qirg'iziston kutubxonalari konsortsiumi prezidenti tomonidan "**Xalqaro kutubxonachilar hamdo'stligi**" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi!

Ma'lumot o'rnida aytish kerakki, Muhamma-al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining bir guruh professor-o'qituvchilari va doktorantlari tomonidan axborot-kutubxona muassasalari(ARM)ning avtomatlashtirilgan tizimining yangi versiyasi ARMAT++ ishlab chiqilgan edi.

Bugungi kunda ushbu avtomatlashtirilgan tizim Respublikamizning ko'plab ARMLarida joriy etilgan. Quvonarlisi, ushbu tizim ayni vaqtga kelib qardosh respublikalarda ham joriy qilinmoqda.

*Taqdirlash videosini ushbu [havola](#) orqali korishingiz mumkin*

**TATU matbuot xizmati**